

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

2. Центральный банк Республики Узбекистан. Отчёты о состоянии банковского сектора (2020–2024 гг.).
3. Закон Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности».
4. Постановления Президента Республики Узбекистан о мерах поддержки предпринимательства (2020–2024 гг.).
5. Абдураимов А.А. Кредитная поддержка малого бизнеса. — Ташкент, 2022.
6. Каримов Б.Б. Банковские инструменты финансирования предпринимательства. — Ташкент, 2021.

YAYLOVLARDA CHORVACHILIK TIZIMINING BARQARORLIGIGA ERISHISHNING MAQSADLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Gabbarov Sabit Nietalievich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.


e-mail: gabbarovs@mail.ru

Bugungi kunda yuqori tabiiy iqlimga ega bo‘lgan hududlarda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan noyob mahalliy biologik xilma-xillikni saqlab qolish shu bilan birga iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida chorvachilik bilan shug‘ullanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda chorvachilikka iqtisodiy investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha hukumat siyosati ishlab chiqiladi. Ayrim hududlarda fermer xo‘jaliklari ijtimoiy ne‘matlarni yaratganlik hamda ladshaftlarni saqlab qolishi, chorvachilikning uzluksizligini ta‘minlaganlik uchun hukumatdan kompensatsiya talab qilishadi. Chorvadorlarga qo‘yilayotgan bu talab ekstensiv chorvachilikning tovar mahsulotlari raqobatbardosh emasligi haqidagi farazga asoslanadi va jamiyat tomonidan talab qilinayotgan chorvachilikning kamayishini yumshatish uchun chorvadorlarga sohani rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun davlatdan adolatli kompensatsiya olishlari kerakligiga tayanadi.

Ushbu masala bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib asosiy muammolardan biri bu yaylovlarda chorvachilikni rivojlantirish, tizim sifatida tashkil qilishning ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqish bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlarni o‘rganish natijalariga ko‘ra yaylovda chorvachilik tizimining barqarorligiga erishishning maqsadlari belgilab olingan (1-rasm).

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda mahalliy aholining ehtiyojlarini ham hisobga olish lozim, chunki har bir hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarib turadi. Bu esa o‘z navbatida fermer xo‘jaligi faoliyati barqarorligini ta‘minlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari hozirgi vaqtda iste‘molchilar mahsulotning ekologik tozaligi masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda va bu mahsulot narxidagi farqlarda ham namoyon bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, yaylovlarda

chorvachilikni tashkil qilishdan oldin madaniy, ijtimoiy va ahloqiy masalalarni ham hisobga olish lozim. Chunki, insonlar go‘sht, mol go‘shti yoki qo‘y go‘shti iste‘mol qilmaydigan hududlarda go‘sht yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligini tashkil qilishda barqarorlikni ta‘minlash masalasi muammo bo‘lib qolishi mumkin. Ya‘ni bu kabi hududlarda chorvachilikning boshqa mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



1-rasm. Yaylovda chorvachilik tizimining barqarorligiga erishishning maqsadlari

Keltirib o‘tilgan masalalarning samarali yechimlariga erishilishi xo‘jalikning barqarorligi ta‘minlanganligini bildirmaydi. Chunki, iqtisodiy omilarni va sharoitni ham hisobga olish lozim bo‘ladi, ya‘ni zaruriy xom-ashyo hamda ishlab chiqariladigan mahsulot bozoridagi vaziyatni ham o‘rganish lozim.

Shuningdek, ma‘lum bir hududda chorvachilikni tashkil qilish va yaylovlardan foydalanishda mahalliy aholining bilim va ko‘nikmalardan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ya‘ni, ushbu hududni tadqiq qiluvchilar hamda hududda chorvachilikni tashkil qiluvchilar mahalliy aholi tajribalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yaylovlardan foydalanish va ularni barqaror boshqarishda uning mavjud imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi. Chorvani qayerda boqish, yaylovlardagi mavjud biomassa hajmini aniqlashda masofadan zontlash, geografik axborot tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chorvachilik

taraqqiyotini ta'minlashda vertikal integratsiya masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim, chunki har qanday tizim barqaror ishlashi uchun integratsiya bo'lishini talab qiladi. Xususan, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanadigan korxonalarning integratsiyalashuvi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra kooperativ marketing va chorvachilik ishlab chiqarish tizimi orasida integratsiyaning mavjudligi tizimning barqarorligini ta'minlashi aniqlangan.

Qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlashda dehqonchilik va chorvachilikning integratsiyalashuvi barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Intesivlashtirilgan va integratsiyalashgan dehqonchilik hamda chorvachilik tizimi fermer xo'jaligi daromadini oshirish bilan bir qatorda faoliyat barqarorligini ta'minlashi aniqlangan. Ekinlarni yetishtirish va chorvani boqish sinergetik samaraga ega bo'lganligi sababli dehqonchilik va chorvachilik tizimini integratsiyalash asosida nafaqat iqtisodiy balki ekologik foyda ham olish mumkin bo'ladi. Chorva tabiiy o'g'it manbai bo'lib yer unumdorligini oshirishga yordam beradi va hosildorlikni oshiradi.

Yaylovdagi biomassa ya'ni pichanni boshqarish yaylov chorvachiligining asosi hisoblanadi, chunki odatda chorva iste'mol qilganidan ko'ra ko'proq miqdordagi pichanni chiqitga chiqishiga sababchi bo'ladi. Ushbu jarayonni nazoratga olish chorva go'ngida pichan chiqindilari ulushini kamaytirishga yordam beradi. Oziq moddalar oqimi va boshqa yo'qotishlarni kamaytirish uchun pichan boqish joylari suv havzasi va qirg'oq bo'yidan kamida yuz fut uzoqlikda bo'lishi talab qilinadi.

Fikrimizcha yaylov chorvachiligini tashkil qilish asosida vujudga keladigan ekotizim xizmatlari haqida to'laroq tushunchaga ega bo'lish, ularning ta'sirini baholash imkoniyatlarini ochib berish yaylov chorvachiligidan keladigan samaradorlik va nafni aniq baholash imkoniyatini yaratib beradi. Shuningdek, dehqonchilik va yaylov chorvachiligi orasidagi bog'liqlikni miqdoriy baholash qishloq xo'jlagini barqaror rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish, sohalarning optimal nisbatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni boshqacha aytganda dehqonchilik va chorvachilikni o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Council of Europe. European Landscape Convention; European Treaty Series: Florence, Italy, 2000; p. 4. Available on-line: <http://www.convenzioneeuropeapaesaggio.beniculturali.it/uploads/Council%20of%20Europe%20-%20European%20Landscape%20Convention.pdf> (accessed on 8 February 2021).
2. García J.L., Prólogo I. Esperanza en la dehesa. In Manual para la Gestión sostenible de las Dehesas Andaluzas; Alejano R., Domingo J.M., Fernández M., Eds. Foro para la defensa y conservación de la dehesa “Encinal”; Universidad de Huelva: Huelva, Spain, 2011; pp. 9–10. Available online: <http://rabida.uhu.es/dspace/handle/10272/6641> (accessed on 8 February 2021).
3. Bernués A., Ruiz R., Olaizola A., Villalba D. and Casasús I. 2011. Sustainability of pasture-based livestock farming systems in the European

Mediterranean context: Synergies and trade-offs. *Livestock Science* 139 (2011): 44–57.

4. Komwihangilo D.M., Goromela E.H. and Bwire J.M.N. 1995. Indigenous Knowledge in Utilization of Local Trees and Shrubs for Sustainable Livestock Production in Central Tanzania. *Livestock Research for Rural Development*, 1995(6/3): 159:168.

5. Casabianca, François & Greef, Karel. (2008). Vertical integration: farming systems in food chain.

6. Delgado C.L. and Siamwalla A. 1997. Rural economy and farm income diversification in developing countries. Paper presented at a Plenary Session of the XXIII International Conference of Agricultural Economists, August 10-16, Sacramento, CA, USA.

IQTISODIY O‘SISHDA TURIZMNING O‘RNI

Abrorova Bahriniso, Ziyatova Ruxshona

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Norbekov Xursandmurod

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqola turizm xizmatlarini yanada rivojlantirish jarayonida animatsion dasturlarni yaratish va ularning samarali boshqarish mexanizmlarini tahlil qiladi. Turistik animatsiya dasturlari sayohatchilarning talablarini qondirish, ularning dam olish tajribasini boyitish hamda turizm obyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada animatsion xizmatlarni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari, samarali boshqaruv usullari hamda innovatsion yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasida animatsiyaning iqtisodiy ahamiyati va amaliyotga joriy etish bo‘yicha aniq takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, animatsion dasturlar, boshqaruv mexanizmi, innovatsiyalar, xizmatlar sifati.

Kirish

Globalizatsiya va turizm sanoatining jadal rivojlanishi sharoitida sayyohlarning dam olish sifati va qiziqarli dasturlarni taqdim etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Animatsion dasturlar turizm xizmatlarining tarkibiy qismi bo‘lib, sayohatchilarning qoniqishini oshirish va ularni uzoq muddatli jalb qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada animatsion dasturlarni yaratish va ularning tashkiliy mexanizmlarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism:

Animatsion dasturlar tushunchasi va turlari.